

**MAKTAB O'QUVCHISINING BADIY-ADABIY KAMOLOTI BOSQICHLARI VA
ADABIYOT TA'LIMI TIZIMIDA BA'ZI ADABIYOTLAR TANLOVI HAMDA
MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI TARG'IBOTI**

N. Akindikov¹, X. Ayubov², R. Ravshanova³

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktab o'quvchisining badiiy-adabiy kamoloti bosqichlari va adabiyot ta'limi tizimida ba'zi adabiyotlar tanlovi hamda ma'rifatparvarlik g'oyasi targ'iboti xususida so'z yuritiladi. Qolaversa, maqolada bir qancha metod va usullar keltirilgan bo'lib ulardan o'zbek maktablarining turli sinflarida o'rganiladigan Ma'rifatparvarlik adabiyoti namoyondalari asarlaridan namunalarni o'rganishda ham foydalaniladi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik, kirish darsi, asar mutolaasi, yakuniy dars, asar tahlili.

doi: <https://doi.org/10.2024/5mgtgf77>

Hozirgi paytda jahon va ayniqsa rus psixologlari hamda metodistlarining saybi-xarakatlari sharofati bilan maktab o'quvchisining kitobxon sifatidagi maqomi, uning adabiy kamoloti-rivojlanish qonuniyatlari, kitobxonlik madaniyati darajasining ta'lim tabiatiga bog'liqligi haqida, yosh bilan bog'liq tarzda o'quvchining san'atga nisbatan munosabati sifat tomon burilishi to'g'risida, kitobxon-o'quvchining individual fazilatlar va boshqalar borasida ko'p narsalar ma'lum. Psixologlarning kuzatishlaricha, maktab o'quvchisi umumiy rivojlanishi davomida bir nechta bosqichlardan o'tadi: kichik o'smirlik davri (10-12 yosh), katta o'smirlik davri (13-14 yosh) va ilk yoshlik davri (16-17 yosh). Bolaning yosh bosqichlari taxminan ma'lum bir sinflarda o'qishi bilan mutanosib-mos kechadi: kichik o'smirlik davri – 4-6- sinflar, katta o'smirlik davri 7-8-sinflar va ilk yoshlik davri -9-10- sinflar. O'quvchilarning yosh guruhlariga ajratilishi shartli, chunki inson rivoji bir tekis kechmaydi. Uning ichki kamolotini jadalligi turli omillarga bog'liq - nafaqat yoshi, balki ijtimoiy, maishiy omillar, o'sib-ulg'ayayotgan psixologik mikroklimat ham shaxsiyatining individual o'ziga xosligiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning adabiy-badiiy kamoloti, rivojlanishi, ta'bir joiz bo'lsa, tarbiyasi masalasi yanada murakkab kechadi. Ma'lumki, bir yoshdagi guruhga mansub o'quvchilar orasida badiiy jihatdan o'ta turlicha rivojlangan o'quvchilarga duch kelishimiz mumkin: ba'zi o'quvchilar tengdoshlaridan ikki-uch yilga ilgari ketgan bo'lsa, boshqalari aksincha ortda qolib ketadi. Biroq individual farqlanish qanchalik katta va keskin bo'lmasin, bir yoshdagi maktab o'quvchilari o'rtasida o'xshash jihatlar shunchalik ko'p bo'ladi. O'quvchilarning adabiy-badiiy kamolotidagi bu o'xshash, umumiy rivojlanish tamoyillari ularning yoshlari bilan bog'liq tarzda umuman adabiyot va san'atga, tanlagan adabiy asarlari va adabiy qaxramonlarni baholashlariga, bu borada sezilarli kamolotga erishayotganlarida kuzatiladi va ularga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishlarga har bir yosh

¹ Akindikov Nurmaxambet Borantayevich, SamDCHTI o'qituvchisi

² Ayubov Xayotullo Mute'ulloevich, "Akademik Babajan G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti" davlat ta'lim muassasasi umumuniversitet falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi

³ Ravshanova Rayxonabonu Farruxovna, SamDCHTI talabasi

bosqichida o'ziga xos murakkabliklar hamrohlik qiladi, qayerda ijobiy rivojlanish kuzatilsa, usha yerda muammolar ham mavjud bo'ladi.

Maktab o'quvchisining adabiy kamoloti, rivojlanishi uch davrdan iborat bo'ladi: 5-6-sinflar, 7-8-sinflar, 9-11-sinflar. 5-sinf o'quvchilari tahlil o'rniga matnni qayta aytib beradi, undan so'zlarni olib, o'z nutqiga qo'shadi, asardagi nutqiy qoliplardan foydalanadi. Bunda begona matn his qilinmaydi – iqtiboslar qo'shtirnoqqa olinmaydi. Ular uchun badiiy adabiyot –xayotning nusxasi, borliqning qayd etilishi. Xayot bilan aloqa, asarni baholash, qanday yozilganligi nuqtai nazaridan emas, balki real xayotiy tajribaga qanchalik mos kelishi darajasiga qarab amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida boshqa asarlardan fikrlar o'zlashtiriladi. Reproduktiv tasavvur juda rivojlangan bo'ladi.

Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, 5-8 sinflar mobaynida o'quvchilarning adabiy jihatdan rivojlanishlarida katta siljish yuz beradi. Aynan ushbu sinflarda o'quvchining san'atga nisbatan munosabati anglanilgan, estetik tabiatli bo'lib boradi, endi kitob ularni o'zining mazmun-mohiyati, voqealar silsilasi bilan emas, balki badiiy qadriyat sifatida jalb etib, idrok qilina boshlaydi. Katta yoshdagi o'spirinlarni qiziqtiradigan asarlar ro'yxati kengayadi. Muallifi o'z qaxramonlari kechinmalariga, murakkab hissiyotlarga diqqat-e'tiborli bo'lgan matnlar sevimli asarga aylanadi,- bu yoshda kitob o'z-o'zini anglashga, tushunishga, o'z shaxsini baholashga, idealini shakllantirishga yordam beruvchi vositaga aylanadi. Biroq katta o'spirin yoshida adabiy kamolot borasida erishilgan yutuqlar bilan birga, ba'zi yo'qotishlar ham uchraydi. Agar kichik yoshdagi o'spirin atrof-muhitga, borliqqa nazar tashlasa, katta yoshdagi o'spirin o'z ichki olamiga diqqat qilib, asarlardan faqat unga hamohang motivlarni izlaydi. Ba'zi maktab o'quvchilarida o'zligini namoyon qilish, ifodalash ehtiyoji shunchalik kuchli bo'ladiki, oqibatda badiiy asar tahlili shaxsiy kechinmalari yoki o'zini o'ylantirayotgan mavzudagi mulohazalari bilan almashtiriladi.

7-8-sinflar ma'naviy o'zlikni iztiroblash, qiynash davri bo'lib, idrok hissining keskin subyektivlashishi xos bo'ladi. Shaxsning o'zini anglashi darajasining ortib borishi oqibatida badiiy matn tahlili kitobxon-o'quvchining shaxsiy muammolari bilan to'ldiriladi. Muammoli tahlil tamoyillarga nisbatan ko'pincha, kitobxonni ixtiyoriy tasavvurining keskin rivojlanishi kuzatiladi. O'quvchi asta-sekinlik bilan reproduktiv taassurotdan mazmunning analitik anglash darajasiga kutariladi, biroq o'qilgan narsaning subyektivligi, izchil tarzda muallif g'oyasini obyektiv tarzda tushunish darajasini pastlashtiradi.

Shu o'rinda barcha maktablar, jumladan, o'zbek o'rta maktablari uchun ham umumiy bo'lgan maktab ta'limida adabiy asarni o'rganishning bosqichlarini yana bir karra tanqidiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb xisoblaymiz. An'anaviy tarzda maktabda badiiy adabiyotni o'qitish quyidagi bosqichlarga bo'linadi: a) kirish darsi; b) asar mutoalaasi; v) asar tahlili; g) yakuniy dars. Har bir bosqich davomida o'quvchilar turli-tuman hatti-xarakatni amalga oshirishadi. Bosqichlararo qat'iy chegara belgilanmagan. Aksincha, ular o'zaro aloqaga kirishib, birgalikda xarakat qilinadi. Kirish darslari nazarda tutdigan asosiy maqsad matnni tushunish va idrok etishga o'quvchini tayyorlashdan, keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan tahlil va tushunish uchun mo'ljallarni belgilashdan iborat. Rus olimasi O.I.Nikofova kitobxon idrokining tarkibiy tuzilishiga mos va bu idrok faolligini rag'batlantiruvchi mo'ljallarni belgilaydi, deb ta'kidlagan edi. Bu mo'ljal asarning janri va umumiy tabiati, unda sodir bo'ladigan xarakatlar joyi va vaqti, obrazlar va voqeliklar tizimi, muallifning personajlarga nibatan emosional munosabati, asarning hajmi hamda obrazli yadrosi-markaziga bog'liq. Matn tahlili va mutoalaasiga tayyorgarlikning ikki xil yo'li farqlanadi: o'rganilayotgan asar asosida va shaxsiy taassurotlar asosida. Kirish darslari tarkibiga matnni tushunish uchun zarur bo'lgan tarixiy va bibliografik ma'lumotlar kiritilishi mumkin. Taniqli pedagog-olim S.A. Smirnov asar tahlili va mutoalaasi arafasida bajariladigan ishlarga quyidagilarni kiritadi: o'qituvchining kirish so'zi-uning sinf bilan

tayyorgarlik borasidagi suhbat, o'quvchilar mutoalaa jarayonida foydalanishadigan savollarni tayyorlash va yozib borish, o'quvchilarni idrok etishga tayorlash maqsadidagi illyustratsiyalar-ko'rgazmali qurollarni, ekskursiyalarni ko'rib chiqish. Kirish darslarining asosiy shakllari –o'qituvchining hikoyasi-ma'ruzasi; suhbat; darslik yoki boshqa qo'shimcha adabiyot bilan ishlash; kinodars; ekskursiya. Ko'pincha kirish mashg'ulotidan so'ng sinfnining matn tahliliga tayyorgarligini tekshirish uchun qo'shimcha suhbat o'tkazish ham foydadan holi bo'lmaydi. Asar mazmuni o'zlashtirilganligini tekshirishda rejalar tuzish va qayta so'zlab berishning turli shakllaridan foydalaniladi – plan-reja bo'yicha erkin, matnga yaqin darajada qisqa va lo'nda, hikoyachi shaxsini o'zgartirish va diologni hikoyanavis monologi bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Yuqori sinflarda kirish darslarining mazmuni murakkablashtiriladi va ko'pincha asarning yaratilishi tarixi bilan boyitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. *Adabiyot. 11-sinf. 1-, 2-qismlar.* – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 244 b.
- [2]. Matchon Safo. *Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar.* – T.: O'qituvchi, 1996. – 138 b.
- [3]. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. *Adabiy saboqlar* – 9.
- [4]. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2006. – 160 b.
- [5]. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J. *Adabiyot o'qitish metodikasi.* – T.: O'qituvchi, 1992 – 200 b.
- [6]. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: Учеб. П. для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений / Под ред. С.А.Смирнова. - 4-е изд., испр. - М.: Издательский центр «Академия», 2001.-512 с.
- [7]. Шомуродова Ш. Роль инновационных технологий в широкомасштабной реформации образовательного процесса //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2018. – Т. 3. – №. 2 (67). – С. 30-33.
- [8]. Jahonovna S. S., Avazbekovna I. M. *The importance of terminology in the study of specialized language* //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 19. – С. 279-282.
- [9]. Jahonovna S. S. *Features of semantic and stylistic transformations of stable word combinations* //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 7.
- [10]. Литература. 6 класс. Учебник для общеобразовательных учреждений. В 2 ч. Ч. 2. / автор-составитель В.Я. Коровина. – М.: Просвещение, 2012. – 288 с.
- [11]. Akindikov N. B. *Scientific and methodological foundations of teaching samples of foreign literature in the secondary school system: some factors of national-historical and foreign experience* //theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2022. – №. 7. – С. 11-14.
- [12]. Barontaeich A. N., Shoyzakhovich S. S., Pulatovich K. T. *The development of speech in english for preschool and primary school children* //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 408-414.
- [13]. Akindikov N. *Basic principles of teaching speaking using a communicative approach* //Science and practice: a new level of integration in the modern world. – 2019. – С. 122-124.

- [14]. Akindikov N. *The case method in reading education //science and practice: a new level of integration in the modern world.* – 2019. – С. 125-128.
- [15]. Akindikov N. *Using videos at the english lessons //Scope academic house b&m publishing.* – 2019. – С. 196.
- [16]. Акиндилов Н. Б. *Specific characteristics of uzbek historical works //международный журнал искусство слова.* – 2023. – Т. 6. – №. 2.